

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VORISLIK HUQUQI

Sadullayeva Farida Farxod qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik Fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida belgilangan vorislik huquqining meros qoldiruvchidan uning merosxo'rlariga qonuniy tartibda o'tishi bo'yicha kechadigan jarayonlar to'liq yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *vorislik huquqi, merosxo'r, vasiyat, egasiz mol-mulk, voris, notarius, guvohnoma.*

ПРАВО НАСЛЕДОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: *В данной статье описаны процессы юридической передачи права наследования от умершего к его наследникам, определенные Гражданским кодексом Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *право наследования, наследник, завещание, имущество без собственника, наследник, нотариус, свидетельство.*

RIGHT OF SUCCESSION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: *This article describes the processes of legal transfer of the right of succession from the decedent to his heirs as defined in the Civil Code of the Republic of Uzbekistan.*

Key words: *right of inheritance, heir, will, property without owner, heir, notary, certificate.*

Vorislik — 1) tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti jarayonida hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik; jamiyatda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarining avloddan avlodga o'tishi hamda o'zlashishi; ananalarning amal qilishi; 2) vafot etgan shaxs (meros qoldiruvchi) huquq va majburiyatlarining o'z merosxo'rlariga o'tishidir.

Vorislik huquqi – fuqarolik huquqining bir qismi bo'lib, vafot etgan shaxsning meros bo'yicha huquqlari va majburiyatlarining vorislariga o'tish tartibini belgilovchi huquqiy me'yorlar majmuasi hisoblanadi.

Fuqaroning vafotidan keyin vorislarga o'tadigan mol-mulki meros mulk hisoblanadi. Vorislik O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (keyingi o'rinlarda FK) 1112- moddasiga ko'ra vasiyat va qonun bo'yicha amalga

oshiriladi. Meros tarkibiga meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar kiradi.

FKning 1113-moddasiga muvofiq meros tarkibiga meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan ko'char va ko'chmas mulk, ashyolar, shu jumladan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha mulkiy huquq va majburiyatlar, chunonchi, xususiy mulk huquqi, kredit muassasalarida saqlanayotgan omonatlarga bo'lgan huquq, dehqon xo'jaligi yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kiradi.

Ammo meros tarkibiga meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan quyidagi huquq va majburiyatlar kirmaydi:

yuridik shaxs hisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a'zolik, ularda ishtirok etish huquqlari, agar qonun yoki shartnomada boshqa hol belgilangan bo'lmasa; hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun tovon undirish huquqi; aliment majburiyatlari tufayli yuzaga kelgan huquqlar va majburiyatlar; mehnat va ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar olish huquqi; mulkiy huquqlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy huquqlar.

Meros tarkibiga faqat meros qoldiruvchiga qonuniy asoslarda tegishli bo'lgan mulk kirishi tufayli, o'zboshimchalik bilan qurilgan yoki tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan imoratlar meros tarkibiga faqat marhumning mazkur imoratlarga nisbatan mulk huquqi belgilangan tartibda e'tirof etilgan holda kiritiladi.

Qonunga binoan vasiyat qiluvchi o'z mulkini to'liq yoki qisman har qanday shaxs yoxud bir necha shaxsga, shuningdek yuridik shaxslarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yoxud davlatga vasiyat qilishi, yoinki bir, bir necha yoki barcha qonun bo'yicha merosxo'rlarni merosdan mahrum qilishi mumkin.

Vasiyatnoma va uning asosida berilgan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma faqat sudning hal qiluv qarori bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday talablar bo'yicha sud tomonidan kelishuv bitimi tasdiqlanishiga, u qonunga zid bo'lishi tufayli (FPK 169-moddasining birinchi qismi) yo'l qo'yilmaydi.

Qonun bo'yicha merosxo'rlarga FK 1135 — 1141-moddalarida ko'rsatilgan va navbat tartibida vorislikka chaqiriladigan shaxslar kiradi. Qonunda (FK 1138-moddasi) to'rtinchi navbatda vorislikka chaqiriluvchi shaxslar doirasi aniq ko'rsatilmaganligi sababli, sudlar to'rtinchi, beshinchi va

oltinchi darajadagi qarindoshlarga kiruvchi merosxo'rlarni aniqlashda Oila kodeksi 57-moddasiga rioya etishlari lozim.

FK 1142-moddasiga muvofiq vasiyat qoldiruvchining merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz (shu jumladan, farzandlikka olingan) bolalari, uning mehnatga qobiliyatsiz eri(xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) ham qonun bo'yicha merosxo'r bo'ladilar. Bu o'rinda shuni nazarda tutish lozimki, taqdim qilish huquqi bo'yicha merosxo'rlar, meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari, ikkinchi va undan keyingi navbatdagi vorislar majburiy ulush olish huquqiga ega emas.

Majburiy ulush miqdori qonunda belgilanganligi sababli vasiyat qiluvchi merosxo'rlarning bu ulushga nisbatan huquqlarini o'zgartirishga yoki boshqacha tarzda unga ta'sir etishga haqli emas.

Majburiy ulush belgilashda qonun bo'yicha vorislikka chaqirilishi mumkin bo'lgan barcha merosxo'rlar inobatga olinishi va meros tarkibiga kiruvchi barcha mol-mulkdan kelib chiqilishi lozim.

Merosxo'rga majburiy ulush tayinlashda u meros tariqasida biron-bir asosga ko'ra olayotgan barcha narsa, shu jumladan oddiy uy jihozlari va ro'zg'or buyumlaridan iborat mol-mulkning qiymati ham, bunday merosxo'r foydasiga qilingan vasiyat majburiyatining qiymati ham inobatga olinadi (FK 1142-moddasi).

Quyidagi hollarda ham qonun bo'yicha vorislik mavjud bo'ladi:

- taqdim qilish huquqi bo'yicha vorislik (FK 1140-moddasi);
- meros transmissiyasi tartibida vorislik (FK 1141-moddasi);
- meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari tomonidan vorislik (FK 1141-moddasi).

Taqdim qilish huquqi bo'yicha vorislik qonun bo'yicha merosxo'r meros ochilgunga qadar vafot etgan taqdirda, unga tegishli ulush uning avlodlariga o'tishini nazarda tutadi. Bunda ulush taqdim qilinayotgan qonun bo'yicha merosxo'r bilan birdek darajada qarindosh bo'lgan avlodlar o'rtasida teng taqsimlanadi. Masalan, agar o'g'il (qiz) otasi yoki onasidan oldin vafot etgan bo'lsa, uning bolalari bobosi yoki buvisining vafotidan so'ng qolgan merosga nisbatan taqdim qilish huquqi bo'yicha merosxo'r bo'ladi.

Qonun bo'yicha marhum merosxo'rning eri(xotini) taqdim qilish huquqi bo'yicha voris bo'la olmaydi.

Meros transmissiyasi tartibida vorislik vasiyatnoma yoki qonun bo'yicha vorislikka chaqirilgan merosxo'r (transmittent) meros ochilganidan keyin, lekin uni qabul qilib olishga ulgurmasdan vafot etgan hollarda amalga oshiriladi. Bunday hollarda unga tegishi kerak bo'lgan merosni qabul qilib olish

huquqi uning qonun bo'yicha merosxo'rlariga, agar barcha meros mol-mulk vasiyat qilingan bo'lsa, uning vasiyat bo'yicha merosxo'rlariga (transmissarlariga) o'tadi.

Meros transmissiyasi quyidagi shartlarda vujudga keladi:

- meros ochilgan paytda vorislik huquqiga ega bo'lgan vasiyat yoki qonun bo'yicha merosxo'rning borligi;
- vasiyat yoki qonun bo'yicha merosxo'r merosni qabul qilib olishga ulgurmasdan vafot etganligi sababli uning merosdagi ulushi taqdirini hal qilish zarurati paydo bo'lganligi;
- vafot etgan merosxo'r uning merosxo'rlari bilan almashtirilishi mumkinligi.

Fuqarolik kodeksi 1141-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarni qonun bo'yicha merosxo'r deb topish uchun bir vaqtning o'zida ikki holatning mavjud bo'lishi, ya'ni bunday shaxslarning bir yildan kam bo'lmagan muddat ichida meros qoldiruvchining qaramog'ida bo'lishi va meros qoldiruvchi bilan uning vafotiga qadar bir yildan kam bo'lmagan muddat ichida birga yashagan bo'lishi talab etiladi.

Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi navbatdagi qonun bo'yihl mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga kelganda esa, ular vorislikka chaqirilishi uchun faqat ularning meros qoldiruvchi vafotiga qadar uning qaramog'ida bir yildan kam bo'lmagan muddat ichida bo'lganligini aniqlashning o'zi kifoya.

Meros qoldiruvchining qaramog'ida bir yildan kam muddat ichida bo'lgan va u bilan bir yildan kam muddat ichida birga yashagan yoki u bilan birga yashamagan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar FK 1139-moddasiga muvofiq beshinchi navbatda vorislikka chaqiriladilar.

Meros ochilgan kunga kelib belgilangan tartibda birinchi yoki ikkinchi guruh Mehnatga qobiliyatsiz shaxsni meros qoldiruvchining qaramog'ida bo'lgan deb topish uchun bunday shaxs meros qoldiruvchining to'liq ta'minotida bo'lganligi yoki undan olib turilgan moddiy yordam uning hayot kechirishi uchun asosiy va doimiy manba bo'lganligi fakti aniqlanishi lozim. Meros qoldiruvchining qaramog'ida bo'lganlik fakti fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, ish (xizmat) joyi ma'muriyati, ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan berilgan hujjatlar, shuningdek guvohlarning ko'rsatuvlari bilan tasdiqlanishi mumkin.

Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma, vorislik vasiyat yoki qonun bo'yicha ekanligidan qat'iy nazar, meros ochilgan kundan boshlab olti oy o'tgandan so'ng meros ochilgan joydagi notarius tomonidan beriladi, FK 1146-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomani olish merosxo'rning majburiyati emas,

balki huquqi bo'lganligi sababli, qonunda merosxo'r bunday guvohnoma berish to'g'risida ariza bilan murojaat qilishi shart bo'lgan muddat belgilanmagan.

Notariusning merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berishni rad etishi ustidan merosxo'r tomonidan sudga shikoyat berilishi mumkin bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida belgilangan qoidalar bo'yicha ko'rib chiqiladi.

Agar notarius tomonidan rad etilishi boshqa shaxsga merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berilganligi yoki meros mulki FK 1157-moddasiga asosan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki davlatga o'tkazilganligi bilan bog'liq bo'lsa, ariza da'vo ishi yuritish tartibida ko'riladi.

Vasiyat va qonun bo'yicha vorislikda merosxo'r meros ochilgan joydagi notariusga ariza berish yo'li bilan merosdan voz kechishga haqli. Qonunda meros ochilgandan keyin bunday ariza bilan murojaat qilish mumkin bo'lgan vaqt chegaralanmagan.

Merosning bir qismidan voz kechilishiga, merosdan izohotlar yoki shart bilan voz kechilishiga yo'l qo'yilmaydi, FK 1148-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Merosdan voz kechish to'g'risida ariza bergan merosxo'r keyinchalik uni bekor qilishi yoki qaytarib olishi mumkin emas. Bunday voz kechish faqat sudning hal qiluv qarori bilan va qonunda bitimlarni haqiqiy emas deb topish uchun belgilangan asoslarga ko'ra haqiqiy emas deb topilishi mumkin (FK 113 — 128-moddalari).

Fuqarolik kodeksi 1150-moddasiga muvofiq, merosxo'rlar o'rtasida merosni taqsimlash, undan ulush ajratish to'g'risida kelishuvga erishilmagan taqdirda, taqsimot ulardan istalgan birining talabi bo'yicha sud tartibida amalga oshiriladi.

Bunday nizolarni hal etishda sudlar shuni nazarda tutishlari lozimki, meros ochilgunga qadar uch yil mobaynida meros qoldiruvchi bilan birgalikda yashagan merosxo'rlar meros tarkibidan uy-joy, kvartira yoki boshqa turar joyni, shuningdek uy-joy ashyolari va ro'zg'or buyumlarini olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladilar (FK 1153-moddasi).

Meros qoldiruvchi bilan umumiy mulk huquqiga ega bo'lgan merosxo'rlar ham meros tarkibidan mol-mulkni asl holida (natura shaklida) olishda imtiyozli huquqdan foydalanadilar.

Imtiyozli huquqlar amalga oshirilganda meros taqsimotida ishtirok etayotgan boshqa merosxo'rlarning mulkiy manfaatlariga rioya etilishi shart. Agar mazkur huquqlarni amalga oshirish natijasida merosni tashkil qiluvchi mol-mulk boshqa merosxo'rlarga tegishli ulushlarni berish uchun yetarli

bo'lmasa, imtiyozli huquqni amalga oshirayotgan merosxo'r ularga tegishli pul yoki mol-mulk tovonini to'lashi lozim.

Merosxo'rlar o'rtasida vorislik huquqini belgilash bilan bog'liq nizolarni hal etishda, sud qonun talabidan kelib chiqqan holda har bir merosxo'rning ulushini belgilashi lozim bo'lganligi sababli, ish bo'yicha hal qiluv qarorida mazkur ulushlar foiz ko'rinishida emas, balki kasr ko'rinishida (masalan, 1/4, 1/3, 1/2 va h.k.) ifodalanishi kerak.

Qonun bo'yicha ham, vasiyatnoma bo'yicha ham merosxo'rlar bo'lmagan yoki merosxo'rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo'lmagan yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan hollarda meros mol-mulk sudning hal qiluv qaroriga asosan egasiz deb topiladi.

Meros mol-mulk meros ochilgan kundan e'tiboran uch yil o'tganidan keyin, egasiz deb topiladi. uni qo'riqlash va boshqarish bilan bog'liq xarajatlar uning qiymatidan oshib ketgan hollarda ushbu muddat o'tishidan oldin ham egasiz deb topilishi mumkin.

Meros mol-mulkni egasiz deb topish to'g'risidagi ariza mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi talabiga ko'ra, FPK 327 — 330-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha alohida ish yuritish tartibida ko'riladi.

Egasiz mol-mulk u turgan joydagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkdorligiga, mazkur organ mol-mulkdan voz kechganda esa, davlat mulkdorligiga o'tadi. Bunday ishlar yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorining xulosa qismi egasiz mol-mulk tarkibi va u kimning mulkdorligiga o'tishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Meros mol-mulkni egasiz deb topish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori ustidan marhumning merosxo'ri tomonidan umumiy tartibda shikoyat berilishi mumkin.

Sudlar vorislikka oid ishlarni ko'rishda merosni rasmiylashtirish vaqtida yo'l qo'yilgan qonunchilik buzilishi faktlariga nisbatan xususiy ajrim (FPK 275-moddasi) chiqarish yo'li bilan munosabat bildirishlari, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko'rishlari kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, qonunchiligimizga fuqaro vafot etishidan oldin vasiyatnoma qoldirishi yoki bolalariga mol-mulkini bo'lib berishi shartligi haqida norma kiritish kerak. Agar shu norma joriy etilsa merosxo'rning farzandlari o'rtasida sudlashishlar, meros ortidan jinoyatga qo'l urishlar bo'lmaydi.

Meros ishlari bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud amaliyoti tahlili yana shuni ko'rsatmoqdaki, agar ota-ona hayotligi vaqtida o'z farzandlariga mol-

mulkni bo'lib bergan yoki vasiyatnoma qoldirgan bo'lsa, bunday holatlarda tug'ishganlar meros talashib yurmaydi.

Achinarli jihati shundaki, meros mulkini talashayotganlarning aksariyatini katta yoshlilar tashkil etadi. Bunday bir-biriga yaqin qarindosh bo'lgan yoshi ulug' insonlarning nizolashib yurishi oqibatida hatto ularning farzandlari o'rtasidagi munosabatlarga ham putur yetmoqda. Shunday ekan, meros bilan bog'liq nizolar nafaqat huquqiy, balki ma'naviy muammo hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
2. Fuqarolik huquqi. Darslik. II qism. TDYU nashriyoti, 2019.
3. Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI:

1. Wikipedia.org
2. Advice.uz
3. Kun.uz